

“O‘zmilliybank” AJ va Mastercard tomonidan tashkil etilgan “Xorijda Cashback” sodiqlik dasturini tashkil etish va unda ishtirok etish qoidalarini.

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Bank va Mastercard tomonidan tashkil etilgan “**Xorijda Cashback**” sodiqlik dasturini (bundan buyon matnda – **Sodiqlik dasturi**) o‘tkazish va unda ishtirok etish qoidalarini (bundan buyon matnda – **Qoidalar**) O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, marketing tashabbuslari (rag‘batlantiruvchi, chegirmali va bonusli loyihalar), shuningdek sarflangan mablag‘ning bir qismini qaytarish (cashback funksiyasi) tartibiga oid 2024-yil 7-maydagi **683/26-son Tartib**, shuningdek «O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki» AJ bilan Mastercard Europe SA kompaniyasi o‘rtasida tuzilgan Ramka marketing shartnomasining (№ SM0080906, 2018-yil 12-dekabr) 2023-yil 30-noyabrdagi 2-son ilovasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. Mazkur Qoidalar Mastercard Europe SA xalqaro to‘lov tizimi bilan hamkorlikda Sodiqlik dasturini o‘tkazish, xususan, Mastercard xalqaro to‘lov kartalari egalari bo‘lgan yangi mijozlarni jalb qilish, Mastercard kartalari emissiyasi va ular bo‘yicha tranzaksion faollikni oshirish, shuningdek «O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki» aksiyadorlik jamiyati (bundan buyon matnda – **Bank**) mijozlarining bank mahsulotlari va xizmatlaridan faol foydalanishga bo‘lgan sodiqligi hamda manfaatdorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan.

1.3. Sodiqlik dasturining tashkilotchilari Bank va Mastercard Europe SA kompaniyasi hisoblanadi.

1.4. Bankning yuridik manzili: O‘zbekiston Respublikasi, 100084, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Amir Temur shoh ko‘chasi, 101-uy.

1.5. Sodiqlik dasturi mazkur Qoidalarining 2.1-bandiga muvofiq Bank tomonidan emissiya qilingan Mastercard xalqaro to‘lov kartalari egalari bo‘lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan Bank xodimlari (bundan buyon matnda – **Ishtirokchi** yoki **Ishtirokchilar**) uchun o‘tkaziladi.

1.6. Sodiqlik dasturini o‘tkazish muddati: 2026-yil 1-iyuldan 2026-yil 31-dekabrgacha (ushbu kun ham qo‘shilgan holda).

1.7. Sodiqlik dasturi O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladi.

II. CASHBACK TO‘LASH, SODIQLIK DASTURINI O‘TKAZISH SHARTLARI VA TARTIBI

2.1. Sodiqlik dasturida Bank tomonidan emissiya qilingan Mastercard xalqaro to‘lov kartalarining quyidagi mahsulot turlari ishtirok etadi: **Standard, Gold, Platinum** va **World Elite**.

2.2. Sodiqlik dasturida ishtirok etish uchun O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalarida (savdo-xizmat ko‘rsatish korxonalarida) POS-terminal orqali Bankning Mastercard kartasi yordamida tovarlar va xizmatlar uchun to‘lov amalga oshirilishi lozim.

2.3. Quyidagi operatsiyalar Sodiqlik dasturida ishtirok etmaydi:

- kartadan kartaga pul mablag‘larini o‘tkazish (P2P);

- kassalar, terminallar yoki bankomatlar orqali naqd pul mablag'larini yechish;
- internet tarmog'i orqali tovarlar va xizmatlar uchun onlayn to'lovlar (e-commerce);
- Milliy bankning mobil ilovasi orqali xizmatlar uchun amalga oshirilgan to'lovlar.

2.4. Sodiqlik dasturi amal qiladigan davrda mazkur Qoidalar talablariga rioya qilgan Ishtirokchiga amalga oshirilgan to'lov summasidan quyidagi miqdorlarda cashback hisoblanadi:

- Mastercard Standard kartasi bo'yicha – **0,8 %**;
- Mastercard Gold kartasi bo'yicha – **1,0 %**;
- Mastercard Platinum kartasi bo'yicha – **1,2 %**;
- Mastercard World Elite kartasi bo'yicha – **1,5 %**.

2.5. Bitta bank kartasi bo'yicha bir taqvim oyida hisoblanadigan cashbackning maksimal miqdori ekvivalentda quyidagidan oshmaydi:

- **1 000 000 (bir million) so'm** – Mastercard Standard kartasi bo'yicha;
- **1 200 000 (bir million ikki yuz ming) so'm** – Mastercard Gold kartasi bo'yicha;
- **1 400 000 (bir million to'rt yuz ming) so'm** – Mastercard Platinum kartasi bo'yicha;
- **1 500 000 (bir million besh yuz ming) so'm** – Mastercard World Elite kartasi bo'yicha.

2.6. Cashback Ishtirokchining Bankdagi hisobvarag'ida operatsiya aks ettirilgan oydan keyingi oyning 15-sanasiga qadar bir marta hisoblab o'tkaziladi.

2.7. Cashback summasi to'lov amalga oshirilgan Mastercard bank kartasiga o'tkaziladi.

2.8. Bank mazkur Qoidalar talablariga rioya qilmagan, firibgarlik harakatlarini sodir etgan, Qoidalarning biror bandidan suiiste'mol qilgan yoki boshqa insofsiz harakat (harakatsizlik) sodir etgan Ishtirokchini oldindan ogohlantirmasdan Sodiqlik dasturidan chetlashtirishga yoki unga cashback to'lashni rad etishga haqli.

2.9. Sodiqlik dasturining o'tkazilishi va uning shartlari to'g'risidagi axborot Bank tomonidan mazkur Qoidalarning 4.1-bandiga muvofiq Bankning rasmiy veb-saytida hamda boshqa rasmiy axborot kanallarida joylashtirish orqali e'lon qilinadi.

III. ISHTIROKCHILAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH

3.1. Ishtirokchilarning mazkur Sodiqlik dasturida ishtirok etishi natijasida olgan daromadlari O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 369-moddasiga muvofiq soliqqa tortilmaydi.

IV. YAKUNIY QOIDALAR

4.1. Sodiqlik dasturiga oid axborot-reklama materiallari Bank tomonidan o'zining rasmiy veb-saytida, shuningdek boshqa rasmiy axborot kanallarida, jumladan Telegram, Facebook va Instagram sahifalarida, shuningdek Bankning qaroriga ko'ra boshqa ommaviy axborot vositalarida joylashtiriladi.

4.2. Bank quyidagi holatlar uchun javobgar hisoblanmaydi:

4.2.1. Ishtirokchilar tomonidan mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan Sodiqlik dasturi shartlarining bajarilmasligi yoki o'z vaqtida bajarilmasligi;

4.2.2. Ishtirokchilarning Sodiqlik dasturida ishtirok etishi bilan bog'liq holda ularning hayoti, sog'lig'i, ma'naviy va (yoki) ruhiy holatiga yetkazilgan zararlar uchun;

4.2.3. Ishtirokchining Sodiqlik dasturida ishtirok etishi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan har qanday xarajatlari va (yoki) zararlar uchun;

4.2.4. Suv toshqini, yong'in, zilzila, harbiy harakatlar, vakolatli davlat organlari tomonidan joriy etilgan taqiqlar yoki cheklovlar, shuningdek ularni oldindan ko'rish yoki bartaraf etish Bank imkoniyatidan tashqarida bo'lgan boshqa shunga o'xshash holatlar, jumladan fors-major holatlari yuzaga kelishi natijasida o'z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun.

4.2.5. Sodiqlik dasturida ishtirok etish orqali Ishtirokchi mazkur Qoidalar bilan to'liq tanishganligini va ularga roziligini tasdiqlaydi, shu jumladan:

4.2.5.1. mazkur Sodiqlik dasturini o'tkazish doirasida o'zining shaxsiy ma'lumotlarini amaldagi qonunchilikka muvofiq qayta ishlash, ulardan foydalanish hamda taqdim etishga rozilik bildiradi;

4.2.5.2. agar Sodiqlik dasturini o'tkazish jarayonida Ishtirokchining harakatlari (yoki harakatsizligi) natijasida uchinchi shaxslarning huquqlari buzilishi sababli Bankka da'volar taqdim etilsa, bunday nizolarni mustaqil ravishda hal etish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

4.3. Bank O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Sodiqlik dasturi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga haqli. Bunda tegishli ma'lumot Bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi. Ishtirokchilar Sodiqlik dasturi shartlaridagi o'zgarishlarni Bankning rasmiy veb-sayti orqali mustaqil ravishda kuzatib borishlari shart.

4.4. Sodiqlik dasturini o'tkazish jarayonida yuzaga keladigan barcha nizolar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda hal etiladi.

4.5. Mazkur Qoidalar Bankning Aktivlar va passivlarni boshqarish qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi hamda Sodiqlik dasturi ishtirokchilari va Bank mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq bajargunga qadar amal qiladi.